



ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIJ VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rne



mavzuidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari

Toshkent, 2020-yil 20-may

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus
ta‘lim vazirligi**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek
tili va adabiyoti universiteti**

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

**«MUHAMMAD RIZO OG‘AHIYNING O‘ZBEK
MUMTOZ ADABIYOTI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI»**

**mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman
materiallari**

Toshkent - 2020

Jumladan, hamd mazmunidagi ilk g'azalida: *Chu mazhar aylading olamni husni bemisolingg'a, / Bu ko'zgu ichra bo'ldi necha naqshi bul'ajab paydo*, – deb yozadi shoir. Dunyo Haqning tengi yo'q jamoliga bir ko'zgu va bu ko'zgudagi go'zal naqshlar – rango-rang dunyo bu jamolning aksi degan tasavvur bir tomondan, dunyoning Haq jamoliga ko'zgu bo'lganligi bois qadrlanishi haqida o'ygatoldirsa, ikkinchi tomondan, va asosan, ko'zgudagi aks bo'lganligi bois, qimmat u qadar baland emasligiga ishora qiladi. Shoirning ko'p she'rlarida mana shu ikkinchi jihat bilan bog'liq qarashlar muhim o'rin tutadi:

*Dahr qasrikim haqiqatda ko'han vayronadur,
Oni har kim maskan etmak istadi devonadur.*

Bu ko'hna vayronada inson faqat azoblar ichra sinaladi:

*Dahr bir mayxonadurkim, kulfat oning jomidur,
Ko'z yoshi birla ko'ngul qoni mayi gulfomidur.*

Biroq inson ishq sinovlaridan qochmaydi, balki uning balolariga intilaveradi. Chunki bunday iztiroblarga intilishning sababi – insonning boshdan, avval boshdan ishq tufayli yaratilgani edi:

*Zihi jonlarg'a vasling shavqidin ayshu tarab paydo,
Gahi dardu firoqing xavfidin ranju taab paydo.
Edi ishqingg'a jonlar muftalo ul chog'dakim erdi,
Ne tan, ne tanda bosh, ne boshda yuz, ne yuzda lab paydo.*

Ogahiy ham o'zining Farhodu Majnun ishqidan ustun ishqini taqdirdan deb biladi, ana shu azaliy ishq bilan bog'laydi:

*Ishq aro Farhod ila Majnunga hargiz yetmadi
Munchaki yetdi falakdin dard ila mehnat sanga.*

Ogahiy she'rlarida ham Sharqning, umuman, dunyoning katta shoirlari kabi bosh mavzu – inson, uning betakror, hassos, umidvor ko'ngli, uning kim ekanligi, dunyodagi o'rni masalasi. Shoir inson mohiyatini anglash yo'lida charchamaydi. Ishqning iztiroblari ichra o'rtanib kul bo'lgan ko'ngilning hasratlaridan o'zini izlab yozaveradi. Shu bois ularning ma'rifiy qimmat ulkan, ayni paytda, jozibas, siri, sehri bor:

*Botinni qilib, e dil, orasta mard oso,
Oroyishi zohirg'a mayl aylama zang yanglig'.
Fikr etki, hama umrin g'aflat bila o'tkargan,
Olamda kishi bormu, e Ogahiy, san yanglig'.*

Ogahiy –katta shoir. Uning qarashlari, idrok ko'lami ulkan. Ularning badiiy talqinlari diltortar, jozibali. Shu bois kichik maqolada ularning hammasi haqida yozish mushkul. Biroq uning ijodidagi ulkan haqiqatni uning, bitta she'ridan, bir bayt yoki misrasidan ham anglash mumkin. Ularning har birida Ogahiyning ogoh ko'ngli bor. Shoirning o'zi ham bunga: *Ne tong ogoh bo'lsa Ogahiy ishqing siridin kim, /Onga behuda ermas osmondin bu laqab paydo*, – deya ishonch bilan ishora qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Йигирма жилдлик. Учинчи жилд. – Тошкент: Фан, 1988. – 616 б.
2. Алишер Навоий. Йигирма жилдлик. Тўртинчи жилд. – Тошкент: Фан, 1989. – 560 б.
3. Алишер Навоий. Йигирма жилдлик. Бешинчи жилд. – Тошкент: Фан, 1990. – 544 б.
4. Алишер Навоий. Йигирма жилдлик. Олтинчи жилд. – Тошкент: Фан, 1990. – 568 б.
5. Огаҳий Муҳаммадризо. Таъвиз ул-ошиқин. – Тошкент: Фан, 1960. – 646 б.

BIR MUSAMMAN TAHLILI

Nazzora BEKOVA

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

BuxDU

Muhammad Rizo Ogahiy buyuk shoir, tarixchi, davlat arbobi hisoblanadi. Qoldirgan ijodining hajmi jihatidan ham, adabiyotimiz va madaniyatimiz oldida qilgan xizmatlari jihatidan ham va nihoyat, shaxsiy iqtidori, badiiy talanti va qudrati jihatidan ham Alisher Navoiydan keyin adabiyotimiz tarixida Ogahiyning oldiga tushadigan san'atkor bo'lmasa kerak. Ogahiy tinimsiz ijodiy mehnat qilib, o'z zamonasida iste'dodli shoir, yirik tarixchi olim sifatida shuhrat qozondi. U

bizga yigirma ming misradan oshiqroq she'ni o'z ichiga olgan lirik meros qoldirgan ulkan shoirdir.

Ogahiy musammanlari ham g'oyat yuksak mahorat va badiiyat bilan yozilgan. "**Ey ko'ngul**" musammani ham ogahiyona uslubda yaratilgan.

"Ey, ko'ngul" birikmasi asosiy radif sifatida keladi. Bundan tashqari, musammaning 2-5-7-8-9-11-bandlarida ham ichki radiflar mavjud. Aruzning ramali musammani mahzuh yoki maqsur vaznida yozilgan.

Asosiy radifdan ma'lumki, musammaning asosiy mavzusi ko'ngildir. Bu bevosita ishq bilan ham bog'liqdir. Mumtoz adabiyotimizda ko'ngil asosiy tasvir manbayi hisoblanadi. Chunki tasavvuf ta'limotiga ko'ra, Alloh kishining ko'nglidagina aks etadi. Ishq ham - ko'ngil ishi. "Allohning chin oshiqlari Ka'ba deb ko'ngilni tan oladilar, ko'ngil ra'yiga yuradilar, dunyoni ko'ngil orqali ko'radilar. Ma'rifat ham ko'ngilga quyiladi". Musamman oshiqona mavzuda yozilgan. Unda oshiqning kechinmalari, tuyg'ulari, hijron-u alamlari yoniq pardalarda kuylanadi. Oshiqning azoblariga bosh sababchi - ma'shuqa. Shuning uchun oshiq o'z ko'nglini yaqin olib, unga dardlarini aytadi:

1-band:

*Ohkim, aylab safar azmini jonon, ey ko'ngul,
Noz yakronin surub bo'ldi shitobon , ey ko'ngul,
Qat' etib ta'jil ila ko'h-u biyobon , ey ko'ngul,
Yetti o'zga kishvar ichra shod-u xandon , ey ko'ngul,
Aylabon ag'yor bazmini guliston , ey ko'ngul,
Qildi kulbamni maning bir tiyra zindon, ey ko'ngul.
Kim bo'lubman muhtaloyi dardi hijron, ey ko'ngul.*

Dastlabki bandda ma'shuqaning uzoq safarga chiqishi, uning tog'-u biyobonlar kezib boshqa shaharga borishi oshiqning dardlariga sababchi bo'ladi. Ma'shuqa ag'yor, ya'ni raqib bazmini yashnatishi oshiqning ahvolini battar og'irlashtirib, kulbasini qop-qorong'u zindonga aylantiradi. Oshiqning ko'ziga dunyo zindonga aylanadi. Ushbu bandda shoir o'zining g'oyasini ochib berishda tashbeh, tazod san'atlaridan unumli foydalangan.

2-band:

*Oshnolig'ni uzub mandin tuman ozor ila,
Kuydi yuz begonalarg'a shevayi raftor ila,
Tuzdi aysh-u, kom-u, rohat bazmini ag'yor ila,
Ichdi ishrat bodasini sog'ari sarshor ila,*

*Sochti lazzat nuqlini la'li shakar guftor ila,
Mast o'lub sho'ru alolo boshladi ashror ila,
Emdi man ko'kni necha yiqsam fig'on- uzor ila,
Ul mahi sarxush eshitmak ermas imkon, ey ko'ngul.*

2-bandda ham oshiq ko'ngliga ma'shuqaning unga qilgan sitamlari haqida yozg'iradi. Uning oshiqqa iltifot ko'rsatmayotganligi, raqib bilan shod-u xursandchilik qilishi, bazmlarda may ichib, mast bo'lishi tasvirlanadi. Oshiq olamga qanchalik dod-u fig'on solsa ham sarxush yor uni eshitmaydi. Tasavvufda may Allohga bo'lgan ishqning timsoli hisoblanadi. Ushbu bandda ham may, sarxushlik orqali Yaratganga bo'lgan ishq nazarda tutilmoqda.

3-band:

*Muddaiylar bazmi to ul mohg'a manzildurur,
Devlar xayli pari ruxsorig'a vosildurur.
Turfa ko'rgilkim, pari ham devg'a moyildurur,
Devning dog'i paridin maqsadi hosildurur,
Lahza-lahza aysh ila ishratlari komildurur,
Chun alar bir-birining vasli bila dilxushdurur,
Ish manga dardi firoq ichra base mushkildurur-
Kim, bu dardimg'a topilmas hech darmon ,ey ko'ngul.*

3-bandda shoir istiora orqali yorni pariga, muddaiylar, ya'ni da'vo qiluvchilarni devga o'xshatadi.

4-band:

*Toki izhor aylabon berahmlik ul dilrabo,
Tashlabon ketti mani otashgahi hijron aro,
Shu'layi ohimg'a churkondi bori ahli samo,
Dahrni qildi fig'onim o'tining dudi qaro,
Seli ashkim yer yuzida qo'ymadi yiqmay bino,
El makoni amn topmay ixtiyor etti jalo,
Koshki hargiz mani halq etmagay erdi xudo-
Kim, sabab bo'ldim bo'lurg'a dahr vayron, ey ko'ngul.*

U dilrabo oshiqqa berahmlik qilganidan so'ng, uni hijron otashgohi ichra tashlab ketadi. Yer-u osmonni oshiqning ohi tufayli zulmat qopladi, ko'z yoshining selidan bu dunyoda yiqilmagan bino qolmadi. "Ey ko'nglim, qaniydi

Alloh meni yaratmaganida edi, chunki men tufayli bu dunyo vayron bo'ldi". Bu bandda Ogahiy mubolag'a san'atidan unumli foydalangan.

5-band:

*Yuzda la'li shaklimu ,yo bog'i rizvon ichra o't,
Yo tushubdur zarra chog'lig' mehri raxshon ichra o't.
Yo'qsa g'uncha axgari solmish guliston ichra o't-
Kim, ul o'tning tobidin tushti mango jon ichra o't,
Jon o'tidin shu'la urdi jismi uryon ichra o't,
Jismi uryon o'ti soldi baytul ahzon ichra o't,
Baytul ahzon o'ti dog'i urdi davron ichra o't,
Yondi ham ul o'tg'a barcha ahli davron, ey ko'ngul.*

Bu baytda shoir yorning yuzini bog'i rizvon, ya'ni jannat bog'iga o'xshatadi. Ma'shuqaning la'ldek qizil labini jannat bog'iga tushgan o'tga qiyoslaydi. Yoki quyoshdan bir zarra ma'shuqa yuziga tushibdimi. G'uncha guliston ichiga o't yoqqani tufayli u o'dan mening qalbinga ham o't tushdi. Bu bandda keltirilgan o't aslida ishqning ramzi hisoblanadi. Lab esa mavjudotga vujudiy fayz yetkazuvchi rahmoniy nafas, labdan maqsad kalom va rahmoniy nafasga ham ishora, ashyolar vujudiga fayz bag'ishlashdir. Lab jonni quvvatlantiruvchidir. Bu shariat tilida "nafxi ruh" deyiladi. Shuningdek, lab - oshiqnlarni fayz va xursandchilik bilan siylash ma'nosida ham keladi. Ilohiy olamdami payg'ambarlarga farishta, valilarga ilhom orqali nozil bo'lgan so'zlarni ham ifodalab keladi. Demak, bu bandda oshiq ishqni ilohiyning naqadar kuchli ekanini ifodalab kelgan. Solikning ma'shuqa, ya'ni yorga bo'lgan ishqni shu qadar kuchli, uning labidan oshiq joniga tushgan o't baytul ahzon, ya'ni oshiqning g'amxonasiniga tushib, uni kuydiradi, oshiqning uyidan so'ng butun olamga o'tib, butun dunyoni kuydiradi. Ogahiy bu tasvirlarda tadrij san'atidan mahorat bilan foydalangan.

6-band:

*Qaddi hajrida tanimg'a sanchilib yuz ming sinon,
La'lining shavqi bila bag'rim sarosar bo'ldi qon,
Qoshinin fikri yukidn qomatim bo'ldi kamon,
Sochi savdosida ko'zumga qorong'udur jahon,
Ko'zlarining orzusida erur ashkim ravon,
Belini aylab tahayyul bo'lmisham ko'zdin nihon.
Gar yana qilsa xudo vaslin muyassar nogahon,*

Muncha mushkil mehnat o'lg'oy erdi oson, ey ko'ngul.

Bu baytda zohiran qaraganda ma'shuqaning go'zalligi madh etilayotgandek ko'rinadi. Uning qaddi-qomati, la'ldek labi, qoshi, shochi, ko'zlari, beli - hamma uvzlari birma-bir tilga olib o'tiladi. Lekin botinan bularning ma'nosi boshqa. Masalan, qad - vahdat olamiga tavajjuh qilish uchun qoyim bo'lmoqlikni anglatadi, la'ldek lab esa mavjudotga vujudiy fayz yetkazuvchi rahmoniy nafas, labdan maqsad kalom va rahmoniy nafasga ham ishora, ashyolar vujudiga fayz bag'ishlash ma'nosida keladi. Qosh- ilohiy zotni to'sib turuvchi ilohiy sifatlar va vujud olami bu sifatlardan ravnaq, go'zallik va jamolga ega bo'ladi.

Sochning tasavvufiy adabiyotlarda bir qancha ma'nolari bor. Jalolij tajalliy va tariqat mushkilotlari, mutlaq jamol vahdatining to'silishiga sabab bo'ladigan jamolij tajalliy va jalolij sifat. Soch- yashirin mohiyatki, uni anglash va idrok qilishga hech kim qodir emas. Soch - olamning g'aroyib suratlari, yo'qlik olami ma'nosida ham keladi. Bulardan ko'rinib turibdiki, Ogahij haqiqij ishqni kuylagan.

Ko'z - tasavvufda komil inson ramzi. Bundan tashqari ashyolar (narsalar)da Haqni mushohada qilish. Bu mushohadakorlik layoqati basarij sifatlar deb ta'bir qilinadi. Ya'ni solik nazaridan biror narsani chetda qoldirmaydigan foydali va zarali narsalarni nazorat qilib turuvchi, uning barcha yaxshi va yomon ahvoliga taalluqli basarij sifatlar. "Ey ko'ngil, agarda uning vasliga muyassar bo'lganimda edi, barcha mushkullarim hal bo'lardi" ,-deya oshiq ko'ngliga o'z ahvolini bayon etadi.

Bu bandda shoir tanosub, tashbeh, istiora, tazod kabi badiij san'atlardan foydalangan holda o'zining maqsadini ochib bergan.

7-band:

*Tole-yu baxt aylabon gar holima parvo yana,
Qoytibon kelsa safardin ul buti zebo yana,
Muddaiylar suhbatin tark aylabon amdo yana,
Tiyra kulbam mehribonlig' aylasa ma'vo yana,
Kosa olib qo'lg'a bo'lmoqq'a qadah paymo yana,
Bo'ynuma ilgin solib , no'sh aylasa sahbo yana,
Bo'yla bir suhbatni topsam gar mane shaydo yana,
Qolmas erdi zarracha ko'nglumda armon, ey ko'ngul.*

Mumtoz adabiyotda ma'shuqa qanchalar sitamkor bo'lmasin, oshiq uni sabr bilan kutadi, unga yetishishdan umidini uzmaydi. Bu baytda ham oshiq ma'shuqaning qaytib kelishiga umid bog'laydi. "Ey ko'ngil, agarda baxt-u tole menga kulib boqsa, u zebo da'vo qiluvchilarning oldidan yana yonimga qaytib kelsa, qorong'u kulbam yana yorishardi. May ichib, men uning suhbatidan bahramand bo'lsam, ko'nglimda zarracha armon qolmasdi". Bu yerda may ham Allohga bo'lgan ishqning timsoli hisoblanadi.

Bu band badiiy jihatdan ham g'oyat puxta, go'zal yozilgan. Yana so'zi ichki radif bo'lib kelgan.

8-band:

*Hajr shomida boshimg'a kelmagan g'am qolmadi,
Yig'lamoqdin ko'zlarimda oqmag'an nam qolmadi,
Dardu mehnat jomidin man ichmagan sam qolmadi,
G'ussadin jismimda quvvat urg'oli dam qolmadi,
Aql-u hushim ketti, sabrimdin asar ham qolmadi,
Qilmog'on afsus holimg'a bir odam qolmadi,
Vah netoykim, rozi ishqim elga mubham qolmadi,
Nechakim sa'y ayladim soqlorg'a pinhon, ey ko'ngul.*

Bu bandda oshiqning yorga yetishish yo'lida chekkan mashaqqatlari aks ettirilgan. Mubolag'a san'ati vositasida oshiq kechinmalari ifodalab berilgan. Shoir hijronni shomga o'xshatib, bu kechada uning boshiga turli-tuman g'am kelganini, oshiqning g'ussa tufayli oh urishga majoli ham qolmaganligini, sabri tugab boraytoganligini, hatto dardini aytishga biror yaqini ham qolmaganini, uning bu ahvolidan xalqning xabardor bo'lganini ko'ngliga so'ylaydi.

Xalq tasavvufda ilohiy ishqdan bexabar kimsalar sifatida ham talqin qilinadi. Ishqi ilohiyini har bir solik o'z qalbida sir tutishi kerak. Agar sir tutmasa, uning boshiga Mansur Hallojning kuni tushishi shubhasizdir. Lekin oshiq qalbidagi ishq shu qadar kuchli, uni yashirishning iloji bo'lmaydi.

9-band:

*Gar burundin ishq mushkil erkanin bilsam edi,
Hajr dashti ichra bir dam yel kibi yelsam edi,
Xanjari g'am birla bag'rim go'shasin tilsam edi,
Bor-u yo'qdin furqat anduhida ayrilsam edi,
Hasrat ilgi birla ko'zdin g'am yoshin silsam edi.
Onsizin sonsiz baloni fahm agar qilsam edi,*

Ondin ayrilmas edim o'lguncha bir on, ey ko'ngul.

Bu bandda oshiq "agarda yordan ayrilish naqadar og'ir ekanligini oldindan bilsam, hijron dashtidan bir marta o'tib ko'rsam, usiz son-sanoqsiz g'amni fahmlasam edi undan o'lguncha ayrilmasdim ", deya ko'ngilga hasrat qiladi.

10-band:

*Topibon begonalar ul oy visoli davlatin,
Kecha-yu kunduz surarlar bazm-u ,aysh-u ishratin,
Noz ila yerlar damo-dam xoni husni ne'matin,
No'sh etarlar har nafas jonbaxsh la'li sharbatin,
Ohkim, man zor ichib har lahza zahri furqatin,
Tinmayin tokay chekarman kulfat-u g'am mehnatin,
Emdi man dog'i tilab haqdin huzuri suhbatin,
Ul taraf azm aylayin to boricha jon,ey ko'ngul.*

Begonalar ma'shuqa visolidan bahramand bo'lib, kechay-yu kunduz bazm qiladilar. Begonalar uning jon ba'g'ishlovchi labidan bahramand bo'lsalar, oshiq ayriliq zaharini ichadi. Endi oshiq taqdirga tan bergisi kelmaydi.U Haqdan ma'shuqa vaslini tilab , to tanida joni qolguncha unga yetishishga qaror qiladi. Bu bandda Ogahiy o'zini Alloh ishqiga ba'g'ishlamoqchi bo'lgan so'fiylarning azmini ko'rsatib bergan. Bandda tazod san'ati orqali begonalar va oshiqning ruhiy holati, ahvoli ochib berilgan.

11-band:

*Ishq manga bo'lmish ul oy ko'yida maskan aylamak,
Dardlig' abyot o'qub , holimg'a shevan aylamak,
Husni vasfin g'azal birla mubarhan aylamak,
Masnaviy ichra g'ami ishqin mubarhan aylamak,
Ogahiy yanglig' ruboiy san'atin fan aylamak,
Fikr ila dilkash muxammaslar muzayyan aylamak,
Lek emas erdi hadim nazmi musamman aylamak,
Bo'ldi bu jur'atg'a bois hukmi sulton, ey ko'ngul.*

So'nggi bandda oshiq ma'shuqa ko'yida dardli she'rlar bitish, unga atab g'azallar, masnaviyalar, ruboiylar, dilkash muxammaslar yozishni o'ziga kasb qilib olganligi aytiladi. Zimdan biz oshiq timsolida shoirning o'zini ko'ramiz. Ogahiy so'nggi bandda o'zining ijodiga ham o'zi baho berib o'tadi. O'zining nazm

MUNDARIJA

OGAHY SHE'RIYATINI O'RGANISH MUAMMOLARI

HAQQULOVI Ibrohim. Haqiqat va abadiyat.....	3
JUMAXO'JA Nusratullo. G'azalda faqru fano talqini.....	11
ADIZOVA Iqboloy. "Ustina" radifli g'azal takomili tarixi.....	17
O'RAYEVA Darmonoy. JALILOVA Zarnigor. Ogahiy she'riyatida ma'shuqa go'zalligining gullar vositasida ifodalanishi.....	24
YUSUPOVA Dilnavoz. Ogahiy taxmisilari.....	29
AHMEDOVI Shoir. TESHAYEVA G. Ogahiy ruboiylarida tabiat tasviri.....	34
QUVVATOVI Dilrabo, SOHIBOVA Zarnigor. Ogahiy ijodida bahor tasviri.....	38
G'AYIPOV Dilshod. Ogahiy she'riyatidagi shohbaytlar haqida	43
MULLAXO'JAYEVA Karomat. Dardangiz devon sohibi.....	49
BEKOVA Nazzora. Bir musamman tahlili.....	53
NURIDDINOV Shahobiddin. Ogahiy g'azallariga komil muxammaslari.....	60
RAJABOVA Ma'rifat. Navoiy va Ogahiy ijodida mifologik obrazlar tasviridagi mushtarakliklar.....	66
TILAVOV Abdumurod. Ogahiy ruboiylarida olam va odam talqini.....	70
SABITOVI Tojixon. Ogahiy ijodida Navro'z madhi.....	73
MATYOQUBOVA Tozagul. Ogahiy lirikasida pari obrazining poetik tasviri.....	76
AMONOVI Zilola. Ogahiyning Nasimiyga tatabbu'si.....	82
ASHUROVI Gulbahor. "Xazon yetkan nishonidur qirov gar tushsa bog' uzra...".....	88
MAHMUDOV Jasurbek. UMAROVA Sohiba. Ogahiy va Tabiiy tahmidlari to'g'risida.....	92
AMONOV Shermuhammad. "Hayratu-l-ushshoq" devonidagi Ogahiy g'azallariga yozilgan muxammaslar haqida.....	96
QUVVATOVI Dilrabo, O'ROQOVA Nafosat. Komil Avaz ijodida Ogahiy obrazi talqini.....	102
TOJIBOYEVA Ozoda. Ogahiy she'riyatida an'ana va o'ziga xoslik.....	107
KARIMOV Islombek. Ishq-muhabbat mavzusi Ogahiy nigohida.....	111
RAHMONOVA Shahnoza. Ogahiyning mustazod yaratishdagi mahorati.....	115
KAZAKBAYEVA Dilrabo. Muhammadrizo Ogahiyning "Aziz jong'a" tarji'bandi xususida.....	120

ABDUSAYIMOVA Dilfuza. Ogahiy mustazodida ishq talqini.....	125
OTAXANOVA Mahmuda. Ogahiy lirikasi badiiyati	130
QOZAQOV Sadridin. Ogahiy ijodida Iso Masih timsoli.....	134
XUDAYBERGANOV Yodgorbek. Ogahiy g‘azallarida talmeh san‘ati.....	138
IBRAGIMOVA Umida. Ogahiy va Hofiz Xorazmiy ijodida tazod san‘ati	141
RUZMETOV Shahzodbek. Ogahiyning hamd g‘azallarida vazn va qofiya munosabati	145

OGAHIY NASRI, TARIXIY VA TARJIMA ASARLARI

JABBOROV Nurboy. “Firdavsu-l-iqbol” – Ogahiyning badiiy-tarixiy nasrdagi ilk tajribasi	149
SHODMONOV Nafas. Badiiy-tarixiy nasr matni yaxlitligini ta‘minlashda she‘riy asarlarning o‘rni (“Shohidu-l-iqbol” asari misolida).....	166
O‘ROZBOYEV Abdulla. Xazon bilmas davlat bog‘lari (“Riyozu-d-davla”ning ilk to‘la nashri munosabati bilan).....	174
XALLIYEVA Gulnoz, ADAMBAYEVA Nargiza. Ogahiy ijodining Amerikada o‘rganilishi.....	181
ZIYAYEVA Dono. Muhammad Rizo Ogahiyning tarixiy asarlari	185
HAMROYEVA Orzigul. “Debocha”dagi saj‘ning poetik vazifasi	188
HAYDAROV Toir. “Qobusnoma”ni o‘zlashtirishga oid besh jihat.....	193
SA‘DULLAYEV Bahrom. “Firdavsu-l-iqbol” asarida chap qirg‘oq Kat-qal‘a tarixiga doir ma‘lumotlar haqida.....	197
MANSUROV Sobir. Sa‘diyning “Guliston” asari tarjimasining G‘afur G‘ulom nusxasi haqida	201
JUMAYEVA Dilnoza. “Yusuf va Zulayxo” dostonining Ogahiy tarjimasiga doir ayrim mulohazalar	205
RAZZAQOV Jahongir. Ogahiy asarlarida Xiva xonligining Angliya bilan munosabatlari	209
RO‘ZIYEV Elbek. “Firdavsu-l-iqbol”dagi nazmiy parchalar va ularning badiiyatiga doir ayrim mulohazalar	213

TA‘LIM TIZIMIDA OGAHIY ASARLARINI O‘QITISH MUAMMOLARI

ABDURAHMONOVA Barno. Ogahiy hayoti va ijodini o‘rganishning umumta‘lim maktablari adabiyot dasturlaridagi ifodasi	218
AVAZOVA Gulrux. Ogahiy ijodini o‘rganishda yangicha yondashuvlar.....	222

ISROILOVA Sohiba. Ogahiy asarlari matni ustida ishlash.....	227
NAJMITDINOVA Naima. Ta'lim tizimida Ogahiy asarlarini o'qitish muammolari.....	230

OGAHY IJODINING TILSHUNOSLIKDAGI ILMIY TALQINLARI

TILLAYEVA Muyassar. Ogahiy yangi sodda yasalma va qo'shma so'zlar ijodkori sifatida.....	234
NORBAYEVA Shukurjon. Ogahiy tarixiy asarlari leksikasi va Xorazm shevalari lug'at fondi.....	238
MAHMUDOV Raufjon. Ogahiy tarixiy asarlarida qo'llangan ayrim avestoviy antroponimlarning etimologiyasi.....	243
RADJAPOVA Umida. "Lahjatu-l-lug'ot" - Ogahiy asarlari leksikasi tadqiqida muhim manba.....	248
NURULLAYEVA Sarvinoz. Ogahiy she'riyatida mifologik obrazlar metaforizatsiyasi xususida	253
KOMILOVA Dilrabo. Ogahiy asarlarida antroponimlar	257

Ilmiy-ommabop nashr

**MUHAMMAD RIZO OGAGHIYNING
O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI RIVOJIDA
TUTGAN O‘RNI**

Muharrir:

Tilavov Abdumurod

Dizayner:

Humoyun Is'hoqov

Musahhiha:

Abdujalilova Diyora

“Navoiy universiteti” nashriyot matbaa uyi

Terishga 2020-yil 15-mayda berildi.

Bichimi 84x108. 1/16. Cambria garniturasida tayyorlandi.

16 shartli b.t. 15,5 hisob nashr b.t.

(elektron nashr)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti

Toshkent shahri Yakkasaroy tumani Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy

